



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 15-sentabr

VII-11-93-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

Tuman mahalliy byudjetining 2025-yilgi xarajatlar manbaiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-455-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 6-sonli yig‘ilish bayoni, Iqtisodiyot va moliya vazirligining joriy yil 3-yanvardagi 1-sonli buyrug‘i, Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasining 2-m-sonli, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, g‘aznachilik boshqarmasining 2025-yil 5-fevraldagi 16-m va 9-m-sonli hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, g‘aznachilik boshqarmasining 2025-yil 26-fevraldagi 25-m-sonli qo‘shma buyruqlari ijrosini ta‘minlash maqsadida tuman mahalliy byudjeti xarajatlar manbaiga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrda PQ-455-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi 6-sonli yig‘ilish bayoni hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining joriy yil 3-yanvardagi 1-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida, mahalliy byudjet xarajatlarining ijrosini tahlil qilish asosida qonunchilik talablariga muvofiq bo‘lmagan, samarasiz va past samarali xarajatlar bo‘yicha tuman mahalliy byudjetiga maqbullashtirilgan mablag‘lar hisobidan quyidagicha o‘zgartirishlar kiritilib mablag‘lar ajratilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Chorvachilik va parrandachilikni qo‘llab-quvvatlash, sohada yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-34-son qarori 12-bandida hamda viloyat hokimining 2025-yil 7-fevraldagi 71-11-0-Q/25-son qarori 5-ilovasi, Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 14-maydagi “Veterinariya xizmatini moddiy texnika bazasini mustahkamlash” to‘g‘risidagi 216-11-0-F/25-son qarori 1-ilovasi ijrosini ta‘minlash maqsadida Farg‘ona tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limiga naslchilik ishi va sun‘iy urug‘lantirishni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan Dyuar idishlar va texnik oseminatorlar sumkasi sotib olish xarajatlari uchun 17 000,0 ming so‘m.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga, tuman mahalliy byudjeti xarajatlar manbaiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar bo‘yicha tegishli tashkilot va muassasalarning 2025-yilgi xarajatlar smetalariga o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar rahbarlari tomonidan 2025-yilgi xarajatlar smetalariga o‘zgartirishlar kiritilganligi inobatga olinsin hamda aniqlangan xarajatlar smetalari bo‘yicha mablag‘larni maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga tuman mahalliy byudjetining 2025-yilgi xarajatlar manbaiga kiritilayotgan o‘zgartirishlarni viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Yo‘ldashev hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH